

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**JO‘RAYEV ISLOMBEK ANVAR O‘G‘LI**

**MASOFAVIY XODIMLAR MEHNATINI HUQUQIY TARTIBGA  
SOLISHNING XUSUSIYATLARI**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta’minot huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the abstract of the Doctor of Philosophy(PhD)**

**Jo‘rayev Islombek Anvar o‘g‘li**

Masofaviy xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari ..... 3

**Жураев Ислombек Анвар угли**

Особенности правового регулирования труда дистанционных работников ..... 24

**Juraev Islombek Anvar ugli**

Features of legal regulation of labor of remote workers ..... 46

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**JO‘RAYEV ISLOMBEK ANVAR O‘G‘LI**

**MASOFAVIY XODIMLAR MEHNATINI HUQUQIY TARTIBGA  
SOLISHNING XUSUSIYATLARI**

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta’minot huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Yu878 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va «ZiyoNET» Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Madrahimova Guljahon Ruzimboy qizi**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 26-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2025-yil 27-fevraldagi 1363-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 5-mart kuni tarqatildi.  
(2025 yil 5-martdagi 70-raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.R.Rustambekov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**D.Y.Habibullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

**B.K.Xodjayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda ijtimoiy-mehnat sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining va raqamlashtirishning faol joriy etilishi mehnatni tashkil etishning yangi shakli – masofadan turib ishlashning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga olib keldi. Global ish joyini tahlil qilish markazining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyoda taxminan 288 million kishi masofadan turib ishlagan. Bu umumiy ishchi kuchining qariyb 18 foizini tashkil qilib, muntazam ravishda masofadan turib ishlash pandemiyagacha bo‘lgan (2005-2019-yil) davrda 216 foizga o‘sgan<sup>1</sup>. Rivojlangan davlatlarda masofadan turib ishlash ko‘rsatkichlari dunyodagi o‘rtacha ko‘rsatkichga yaqin yoki undan yuqori bo‘lsa, aksincha rivojlanayotgan davlatlarda ushbu ko‘rsatkich juda past hisoblanadi. Xususan, 2023-yilda Yevropa Ittifoqida o‘n besh yoshdan oltmish to‘rt yoshgacha bo‘lgan xodimlarning 22,2 foizi masofadan turib ishlagan. Biroq masofadan turib ishlash Islandiya, Norvegiya va Finlyandiyada 42 foizni, Bolgariya va Ruminiyada esa 2-3 foizni tashkil qilgan. Faqat Germaniyada masofadan turib ishlash ko‘rsatkichi Yevropa Ittifoqidagi o‘rtacha ko‘rsatkichga teng bo‘lgan<sup>2</sup>. AQSH Mehnat statistikasi byurosi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil avgust oyida taxminan har beshinchi xodim (ishchi kushining 19,5 foizi) masofadan turib ishlovchi xodim bo‘lsa, 2024-yilning birinchi yarim yiliga kelib xodimlarning taxminan 22,8 foizi (35,13 mln. kishi) qisman yoki to‘liq masofadan turib ishlagan<sup>3</sup>.

Masofadan turib ishlash iqtisodiy samarali biznes model bo‘lishiga qaramasdan rivojlanayotgan davlatlar undan samarali foydalana olmayapti. Masofadan turib ishlash esa vaqtinchalik tendensiya emas, balki ishga yondashuvning fundamental o‘zgarishi ekanligini, raqamli inqilob va COVID-19 pandemiyasi ushbu o‘zgarishni tezlashtirganligini va yangi normaga aylantirganligini hisobga olib<sup>4</sup>, Hukumatlar mazkur mehnat shaklidan foydalanish bo‘yicha o‘z siyosatlarini shakllantirishi lozimligi bugun butun dunyoda dolzarb vazifa hisoblanadi<sup>5</sup>.

Jahonda masofadan turib ishlashni ilmiy tadqiq qilish o‘tgan asrning yetmishinchi-saksoninchi yillarida boshlangan<sup>6</sup>. Bugungi kunga kelib masofadan turib ishlashning nazariy-huquqiy asoslari sifatida turli modellar, konsepsiyalar, doktrinalar, nazariyalar va prinsiplar vujudga kelgan. Xususan, masofadan turib ishlashning to‘liq (fully remote work), aralash (hybrid work), nosinxron (asynchronous work), nomarkazlashgan (distributed teams) modellari, ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanat (work-life balance), ijtimoiy kapital (social capital), mehnatga moslashish (job demands-resources), virtual charchoq effekti

<sup>1</sup>Global Workplace Analytics. Latest Work-at-Home / Telecommuting Remote Work Statistics.

<https://globalworkplaceanalytics.com/telecommuting-statistics>

<sup>2</sup> <https://www.statista.com/chart/20743/share-of-employed-people-who-usually-work-from-home/>

<sup>3</sup> Bureau of Labor Statistics, U.S. Department of Labor, Labor Force Statistics from the Current Population Survey <https://www.bls.gov/cps/telework.htm>

<sup>4</sup> <https://www.statista.com/topics/6565/work-from-home-and-remote-work/#topicOverview>

<sup>5</sup> [https://www.ilo.org/moscow/news/WCMS\\_616001/lang--ru/index.htm](https://www.ilo.org/moscow/news/WCMS_616001/lang--ru/index.htm)

<sup>6</sup> Jack M. Nilles, The Telecommunications - transportation tradeoff: options for tomorrow, Copyright © 1976 by John Wiley & Sons, Inc.

(virtual burnout) nazariyalari, moslashuvchanlik (flexibility framework), qoidalarni o'zi belgilash huquqi (self-determination) kabi konsepsiyalar amal qilib kelmoqda. Shuningdek, masofadan turib ishlashda texnologik jihatdan tayyorlik, aloqada bo'lish qoidalari, o'qish va rivojlanishga investitsiya qilish, natijaga yo'naltirilganlik, inklyuzivlik kabi prinsiplar jahonda amal qilib kelmoqda.

Respublikamizda masofadan turib ishlash bilan bog'liq dastlabki normalarning vujudga kelishini ikkita asosiy voqea bilan bog'lash mumkin. Bular mamlakatimizda raqamlashtirish bilan bog'liq holda mehnat qonunchiligini yangilash hamda koronavirus pandemiyasi tarqalishi ortida ko'rilgan favqulodda choralaridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son Farmonining 18-bandida karantinga oid choralar amal qilish davrida ish beruvchilar xodimlarni masofadan turib ishlash usuliga o'tkazishlari mumkinligi ilk bor qayd etildi<sup>1</sup>. Shuningdek, davlat rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmonida davlat organlarida masofadan turib ishlash amaliyotini keng joriy etish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida o'rin oldi<sup>2</sup>. Masofadan turib ishlashni huquqiy tartibga solish bo'yicha eng muhim qadam 2022-yil 28-oktabrda O'zbekiston Respublikasining yangi Mehnat kodeksini qabul qilish bilan amalga oshirildi. Ta'kidlash lozimki, masofadan turib ishlashning huquqiy asoslari yaratilganligiga hamda uning iqtisodiy samarali usul ekanligiga qaramasdan xususiy va davlat sektorida ishni tashkil etishning ushbu usuli keng tarqalmadi.

O'zbekistonda ayni paytda masofadan turib ishlashni huquqiy tartibga solishda muayyan bo'shliqlar va noaniqliklar mavjud. Xususan, ish joyidan tashqarida ishlash shakllari, masofadan turib ishlash, kasanachilik, vaxta usulida ishlash, frilanserlik, onlayn platformalarda ishlash va ularning xususiyatlari, masofadan turib ishlash mumkin bo'lgan kasblar va vazifalarni ro'yxatini belgilash, elektron mehnat shartnomalarini tuzish, o'zaro hamkorlik qilish tartibi, xorijdan masofadan turib ishlash, mehnat shartnomasini qo'shimcha asoslar bo'yicha bekor qilish bo'yicha ilmiy va amaliy muammolar kelib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktabrdagi Mehnat kodeksi, 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni, 2022-yil 12-oktabrdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-dekabrda 971-son "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi joriy qilinishini va uning ishlashini ta'minlashga doir

---

<sup>1</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.03.2020 y., 06/20/5969/0341-son.

<sup>2</sup> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha mamlakatimizda maxsus monografik tadqiqotlar olib borilmagan. Shunga qaramasdan ayrim huquqshunoslar akademik darajada mavzuning u yoki bu jihatlarini tadqiq qilishgan. Xususan, huquqshunos Sh.Ismoilov ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solish doirasida masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqqan. Shuningdek, huquqshunos olim B.T.Musaev mehnat munosabatlariga kollizion-huquqiy normalarning tatbiq etilishini o'rganish davomida raqamli va virtual migratsiya masalalarini tadqiq qilgan. Bundan tashqari bitiruv malaka ishi va magistrlik ishi darajasida I.Bobojonov telemehnatning huquqiy tabiatini, G.A.Javlieva, F.Maxmudov, D.Abdukarimova, F.Karimovalar masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlarini o'rgangan.

Ta'kidlash lozimki, koronavirus pandemiyasi vaqtida ko'plab mutaxassislar tomonidan masofadan turib ishlash va masofadan turib ishlovchi xodimlar bo'yicha ilmiy maqolalar e'lon qilingan. Xususan, M.A.Usmanova, M.Y.Gasanov, G.D.Sattarova, M.S.Boltaev, M.A.Raximov, X.A.Quchqarov, L.U.Rahimqulova, X.V.Burxanxodjaeva, M.J.Xojabekov, L.Xikmatova, F.Primkulova, A.Xalilov, Z.Gaybullaeva, A.Rahmatovlar tomonidan masofadan turib ishlash usuliga o'tish, masofadan turib ishlovchi xodimlarning mehnatini tashkil etish, ish vaqti va dam olish vaqtidan foydalanish, o'zaro elektron hamkorlik va mehnat muhofazasi masalalari bo'yicha tahliliy fikr-mulohazalarga alohida e'tibor berilgan.

Tadqiqot mavzusi Hamdo'stlik davlatlarida ham maxsus monografik tadqiq etilmagan. Lekin masofadan turib ishlashning xususiyatlari bo'yicha nisbatan ko'p sonli ilmiy ishlar mavjud. Bularga O.A.Kojevnikov, N.L.Lyutov, E.V.Kiselova, N.V.Chernix, N.V.Tonkix, O.A.Vorobyova, Y.V.Doljenkova, Y.V.Vasileva, S.V.Shuraleva, I.P.Chiranovalar tomonidan e'lon qilingan ilmiy ishlarni kiritish mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda masofadan turib ishlash va masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solish masalalari A.Kirkov, S.Sidson, H.King, S.Sullivan, L.K.Manzo, Y.Barush, S.Man, L.Haddon tomonidan o'rganilgan<sup>1</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot

---

<sup>1</sup> Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

ishlari rejasi doirasida olib borilgan “Mehnat qonunchiligini rivojlantirish istiqbollari belgilash va mehnat bozorini huquqiy tartibga solishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish” (2022–2026 yy.), “Raqamlashtirish sharoitida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini transformatsiya qilish” (2022–2026 yy.) ilmiy loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini tartibga solishning xususiyatlarini belgilash orqali mehnat shartlarining birligi va differensialligi haqidagi nazariyani rivojlantirish hamda mehnat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ish joyidan tashqari ishlash tushunchasi va ishni bunday tartibda tashkil qilish usullarini ko‘rib chiqish;

masofadan turib ishlash va masofadan turib ishlovchi xodim tushunchalarini ochib berish;

masofadan turib ishlashni zamonaviy tushunishgacha bo‘lgan tarixiy bosqichlarni ko‘rib chiqish;

masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini “ish joyidan tashqarida” ishlovchi boshqa xodimlar mehnatidan farqli jihatlarini o‘rganish;

masofadan turib ishlovchi xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

masofadan turib ishlovchi xodimlarning ish vaqti va dam olish vaqtini hisobga olishning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rib chiqish;

masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini muhofaza qilishga doir o‘ziga xos xususiyatlarni yoritish;

xorijiy mamlakatlarda masofadan turib ishlashga oid modellar, konsepsiyalar va prinsiplarni ko‘rib chiqish;

masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatidan foydalanishni tartibga solish mexanizmlarini hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatidan foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini tartibga solishga oid milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, xalqaro standartlar hamda mavzuga oid mehnat huquqidagi mavjud nazariyalar va qarashlardan iborat.

**Tadqiqotning usullarini** qiyosiy-huquqiy tadqiqot, mantiqiy, tuzilmaviy, tahliliy, tarixiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, empirik tadqiqot, statistik ma’lumotlar tahlili kabilar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

masofadan turib ishlash xodimning mehnat vazifalarini ish beruvchining bevosita yoki bilvosita nazoratida bo‘lgan doimiy ish joyi, hudud yoki obyektidan tashqarida axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanib tashkil etiladigan mehnatning maxsus shakli ekanligi asoslantirib berilgan;

tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega halokatlar, ishlab chiqarishdagi avariya va baxtsiz hodisalar, shuningdek yong'inlar, toshqinlar, zilzilalar, epidemiyalar yoki epizootiyalar ro'y bergan taqdirda hamda aholining yoxud uning bir qismining hayotiga yoki normal yashash sharoitlariga tahdid soladigan boshqa alohida hollarda ish beruvchining tashabbusi bilan xodimning roziligisiz vaqtincha masofadan turib ishlash uchun o'tkazishga yo'l qo'yilishi asoslantirilgan;

masofadan turib ishlashning aralash rejimi statsionar ish joyida ishlashni va masofadan turib ishlashni o'z ichiga olib, statsionar ish joyida va masofadan turib ishlash muddatlari hamda ularning navbat bilan almashinishi mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra aniqlanishi asoslantirilgan;

xodim va ish beruvchi masofadan turib ishlovchi xodimning masofadan turib ishlash to'g'risidagi mehnat shartnomasida belgilangan ish vaqti ichida mehnat vazifasini bajarishi uchun muayyan vaqtni nazarda tutuvchi hamkorlik qilish tartibini belgilash, shuningdek masofadan turib ishlovchi xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilish mehnat shartnomasida nazarda tutilgan qo'shimcha asoslar bilan ham bekor qilinishi mumkinligi asoslab berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

ish joyidan tashqari ishlash shakllaridan biri masofadan turib ishlash ekanligi hamda ushbu shakldan barcha xodimlar foydalanishlari mumkinligi ko'rsatib berilgan;

masofadan turib ishlash mehnat shartnomasining alohida sharti bo'lishi hamda mehnat shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish orqali kiritish tartibi ishlab chiqilgan;

masofadan turib ishlash bo'yicha namunaviy mehnat shartnomasi va uni tuzish tartib-taomillari ishlab chiqilgan;

masofadan turib ishlash va statsionar ishlash ishni tashkil qilishning alohida shakli ekanligi hamda undan foydalanish aralash rejimli mehnat shartnomasi orqali amalga oshirilishi mumkinligi asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, so'rovnomasi, ekspert baholash shakllariga asoslangan. Statistik ma'lumotlarning tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan ma'qullangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy natijalari mehnat huquqining mehnat shartlarining birligi va differentsialligiga oid ilmiy qarashlarni kengaytiradi, masofadan turib ishlash va masofadan turib ishlovchi xodim tushunchalari, masofadan turib ishlashni joriy qilish asoslari va rasmiylashtirish tartibi, masofadan turib ishlovchi xodimlarni ish vaqti va dam olish vaqti, mehnatiga haq to'lash, mehnat muhofazasiga oid muhim nazariy va amaliy masalalarni hal qilishda ahamiyatli hisoblanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Mehnat huquqi", "Mehnat nizolarini hal etish", "Qiyosiy mehnat huquqi" modullarini o'qitish, ish beruvchilar, xodimlar hamda kasaba

uyushmalari uchun amaliy qo'llanmalar tayyorlash, Oliy sud Plenumi qarorlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

masofadan turib ishlash xodimning mehnat vazifalarini ish beruvchining bevosita yoki bilvosita nazoratida bo'lgan doimiy ish joyi, hudud yoki obyektidan tashqarida axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib tashkil etiladigan mehnatning maxsus shakli ekanligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 452-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2021-yil 5-noyabrdagi 06/1-11/2432-son dalolatnoma). Ushbu taklifning joriy etilishi masofadan turib ishlashni ishni tashkil etishning alohida shakli ekanligini belgilab bergan;

tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega halokatlar, ishlab chiqarishdagi avariya va baxtsiz hodisalar, shuningdek yong'inlar, toshqinlar, zilzilalar, epidemiyalar yoki epizootiyalar ro'y bergan taqdirda hamda aholining yoxud uning bir qismining hayotiga yoki normal yashash sharoitlariga tahdid soladigan boshqa alohida hollarda ish beruvchining tashabbusi bilan xodimning rozilgisiz vaqtincha masofadan turib ishlashga o'tkazishga yo'l qo'yilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 454-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2021-yil 5-noyabrdagi 06/1-11/2432-son dalolatnoma). Ushbu taklifning joriy etilishi ish beruvchilarga favqulodda holatlarda, oldindan ko'rib bo'lmaydigan xavflar paydo bo'lganda xodimlarni ularning rozilgisiz masofadan turib ishlash rejimiga o'tkazgan holda mehnat munosabatlarini saqlab qolishga xizmat qilgan;

masofadan turib ishlashning aralash rejimi statsionar ish joyida ishlashni va masofadan turib ishlashni o'z ichiga olib, statsionar ish joyida va masofadan turib ishlash muddatlari hamda ularning navbat bilan almashinishi mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra aniqlanishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 455-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2021 yil 5 noyabrdagi 06/1-11/2432-son dalolatnoma). Ushbu taklifning joriy etilishi ish beruvchi va xodimlarga masofadan turib ishlashning aralash rejimini tatbiq etish imkoniyatini bergan;

xodim va ish beruvchi masofadan turib ishlovchi xodimning masofadan turib ishlash to'g'risidagi mehnat shartnomasida belgilangan ish vaqti ichida mehnat vazifasini bajarishi uchun muayyan vaqtni nazarda tutuvchi hamkorlik qilish tartibini belgilash, shuningdek masofadan turib ishlovchi xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilish mehnat shartnomasida nazarda tutilgan qo'shimcha asoslar bilan ham amalga oshirilishi mumkinligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 460-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2021-yil 5-noyabrdagi 06/1-11/2432-son

dalolatnoma, Adliya vazirligining 2022-yil 14-oktabr 20/4-585/8-sonli dalolatnoma). Ushbu taklifning joriy etilishi ish beruvchi va xodim o'rtasida faol aloqa vaqtini hamda mehnat shartnomasini bekor qilishning qo'shimcha asoslarini belgilash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, 6 ta ilmiy maqola (1 ta xorijiy nashrda), 6 ta tezis chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, sakkiz paragrafni qamrab olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 150 betni tashkil qiladi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida masofadan turib ishlash va masofadan turib ishlovchi xodim tushunchalari hamda ularning zaruriy belgilari, masofadan turib ishlashning turlari va ularning huquqiy tavsifi, masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini “ish joyidan tashqarida” ishlovchi boshqa xodimlar mehnatidan farqli jihatlari o'rganilgan.

O'tgan asrning yetmishinchi-saksoninchi yillarida G'arb davlatlaridagi texnologik taraqqiyot mehnat sohasida ofisdan tashqarida ishlashni paydo bo'lishiga olib keldi. Telekommunikatsiya va axborot texnologiyalarning rivojlanib borishi bilan ikki minginchi yillarga kelib butun dunyoda masofadan turib ishlash mehnatni tashkil etishning alohida shakliga aylandi.

Mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishdagi differentsiatsiya, noan'anaviylik hamda moslashuvchanlik masofadan turib ishlashning konseptual asoslari bo'lib hisoblanadi.

Masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solish va uning xususiyatlarini belgilash “mehnat shartlarining birligi va differentsialligi”giga oid mehnat huquqining usuli orqali amalga oshadi. Masofadan turib ishlash o'z mehnat faoliyatini amalga oshirish joyiga bog'liq bo'lgan differentsiatsiyaning alohida turiga kiradi.

Masofadan turib ishlash ishni tashkil qilishning aynan “ish joyidan tashqarida ishlash” belgisi bilan an’anaviy mehnat munosabatlaridan farqlanadi. Masofadan turib ishlovchi xodimlarning mehnatini tartibga solish xususiyatlari ham aynan ish joyidan tashqari ishlash bilan bog‘liq holda vujudga keladi.

Masofadan turib ishlash moslashuvchanlikka(Flexibility Framework) ham asoslanadi. Bu ish jarayonlarini ishtirokchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ish usulida vaqt, sur‘at va vositalarni mehnat munosabatlari ishtirokchilari erkin tanlashlari mumkin bo‘ladi.

Masofadan turib ishlashning huquqiy asoslarini ishlab chiqish hozirgi kunga qadar ham davom etmoqda. Masofadan turib ishlash bo‘yicha Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyasi yoki tavsiyasi qabul qilinmagan. Yevropa Ittifoqi tomonidan 2002-yilda qabul qilingan “Masofaviy mehnat to‘g‘risidagi hadli bitim” yagona mintaqaviy hujjat amal qilib kelmoqda.

Masofadan turib ishlash bo‘yicha ayrim davlatlarda maxsus qonunlar qabul qilingan. Xususan, Argentinada “Telemehnat to‘g‘risida”gi Qonun (Ley de Teletrabajo)<sup>1</sup>, AQShda “Davlat xizmatida teleish to‘g‘risida”gi Qonun (Telework Enhancement Act)<sup>2</sup> masofadan turib ishlashni tartibga soluvchi qonunlar hisoblanadi. Germaniyada 2025-yil 1-yanvardan “Masofadan turib ishlash to‘g‘risida”gi (Mobile-Arbeit-Gesetz) qonun kuchga kirdi hamda uydan ishlash tushunchasini “ish joyidan tashqarida” ishlashga almashtirdi<sup>3</sup>.

Postsovet davlatlarida esa masofadan turib ishlash haqidagi qoidalar mehnat kodekslarida belgilangan. Masofadan turib ishlash va masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnati bilan bog‘liq normalar Rossiya Mehnat kodeksiga 2013-yilda (491-bob)<sup>4</sup>, Belarus Mehnat kodeksiga 2019-yilda (181-bob)<sup>5</sup>, Ukraina Mehnat qonunlari kodeksiga 2021-yilda (602-modda)<sup>6</sup>, Qozog‘iston Mehnat kodeksiga 2021-yilda (138-modda) kiritilgan. Ta’kidlash o‘rinliki, COVID-2019 pandemiyasi ushbu hududda masofadan turib ishlashning paydo bo‘lishiga katta turtki sifatida xizmat qildi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan 2002-yilda qabul qilingan Masofaviy mehnat to‘g‘risidagi hadli bitim masofadan turib ishlash tushunchasiga dastlabki ta’riflar berilgan hujjat bo‘lib hisoblanadi. Mazkur Bitimning 2-bandiga asosan masofadan turib ishlash – bu mehnat shartnomasiga muvofiq doimiy asosda ishni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ish beruvchining binosidan tashqarida, shuningdek ish beruvchining hududida ham bajarish tushuniladi<sup>7</sup>. Masofadan turib ishlashga berilgan mazkur ta’rif uning to‘liq (fully remote work) hamda aralash (hybrid work) shakllarini o‘z mazmuniga kiritadi.

---

<sup>1</sup> <https://www.argentina.gov.ar/justicia/derechofacil/leysimple/teletrabajo#titulo-1>

<sup>2</sup> <https://www.congress.gov/bill/111th-congress/house-bill/1722>

<sup>3</sup> <https://knowledge.dlapiper.com/dlapiperknowledge/globalemploymentlatestdevelopments/2024/Changes-to-working-from-home-Adoption-of-the-Teleworking-Act?hl=en-GB>

<sup>4</sup> [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_144640/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_144640/)

<sup>5</sup> <https://pravo.by/document/?guid=12551&p0=H11900219>

<sup>6</sup> <https://ips.ligazakon.net/document/view/t211213?an=57>

<sup>7</sup> [https://resourcecentre.etuc.org/sites/default/files/2020-09/Telework%202002\\_Framework%20Agreement%20-%20EN.pdf](https://resourcecentre.etuc.org/sites/default/files/2020-09/Telework%202002_Framework%20Agreement%20-%20EN.pdf)

Masofadan turib ishlashning zaruriy belgilari sifatida xodimning ish beruvchi tomonidan nazorat qilinadigan bino-inshoot va obyektlardan tashqarida ishlashi, shuningdek ishni bajarishda va o'zaro hamkorlik qilishda axborot telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanishi lozimligi e'tirof etiladi (M.Gasanov, Sh.Ismoilov, L.Xikmatova, N.V.Zakalyujnaya).

Masofadan turib ishlashda ish joyidan tashqarida ishlash sodir bo'lib, an'anaviy bo'lgan mehnat faoliyati amalga oshiriladigan joy talabiga rioya qilinmaydi hamda xodimlar ish joyini tanlashda erkin bo'lishadi. Bunda ish joyi sifatida xodimning yashash joyi yoki uning haqiqatda bo'lib turgan joyi yoxud xodim tomonidan mustaqil ravishda belgilanadigan joy ko'rsatiladi.

Masofadan turib ishlash uchun xos bo'lgan xususiyatlarni tahlil qilgan holda ushbu tushunchaning ta'rifi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, masofadan turib ishlash – bu xodimning mehnat vazifalarini ish beruvchining bevosita yoki bilvosita nazoratida bo'lgan doimiy ish joyi, hudud yoki obyektidan tashqarida axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib tashkil etiladigan mehnatning maxsus shakli hisoblanadi.

Masofadan turib ishlash an'anaviy ofis ishi, mobil tarzda ishlash yoki virtual ishlash kabi birgalikda mavjud bo'luvchi ish rejimlaridan biri (Di Martino, Wirth L., Golden T.) yoki to'liqsiz ish, moslashuvchan ish grafigining bir turi sifatida qabul qilinadi (Kossek E., Michel J., Stavrou E.).

Ish joyidan tashqarida ishlash mehnatni tashkil etishning boshqa shakllarida ham uchraydi. Xususan, kasanachilik, ish yo'lda va ko'chib yurish bilan bog'liq ishlar, vaxta shaklida tashkil etiladigan ishlar ham ish joyidan tashqarida bajariladi. Biroq masofadan turib ishlashning axborot telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi uni ishni tashkil qilishning mustaqil turi ekanligini bildiradi.

Odatdagi ish rejimidan masofadan turib ishlashga o'tish xodimni masofadan turib ishlovchi xodimga aylantiradi. Aynan ushbu jihatni e'tiborga olgan holda masofadan turib ishlovchi xodimga ta'rif berildi. Unga ko'ra, masofadan turib ishlovchi xodim – bu masofadan turib ishlash to'g'risidagi qoidalarni o'zida ifodalagan mehnat shartnomasini tuzgan yoki mehnat shartnomasiga odatdagi ish rejimidan masofadan turib ishlash rejimiga o'tish haqida qo'shimcha kelishuv tuzgan shaxsdir.

Masofadan turib ishlash muddatiga ko'ra doimiy yoki vaqtincha bo'lishi mumkin. Doimiy masofadan turib ishlash xodim bilan nomuayyan muddatga yoki muayyan muddatga mehnat shartnomasi tuzilib, unda ishni bajarishning butun muddati davomida masofadan turib ishlash to'g'risida shartlashilgan bo'ladi. Bundan tashqari odatdagi ish rejimida ishlash haqida tuzilgan mehnat shartnomasiga masofadan turib ishlash haqidagi shartni kiritishni nazarda tutuvchi qo'shimcha kelishuv tuzilgan taqdirda ham ish doimiy asosda masofadan turib ishlash hisoblanadi.

Shuningdek, masofadan turib ishlashni to'liq (Fully Remote Work) va aralash (Hybrid Work), sinxron (Synchronous Work) va nosinxron (Asynchronous Work) kabi turlarga bo'lish mumkin.

To'liq masofadan turib ishlashda (Fully Remote Work) xodimlar butunlay masofadan turib ishlaydilar, ish beruvchilar esa jismoniy ofislariga ega bo'lmaliklari ham mumkin. Masalan bularga dasturiy ta'minot, konsalting, texnologiya, ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish, elektron tijorat, biznes tahlil, sug'urta, moliya kabi turli sohalarda faoliyat yurituvchi Automattic, GitLab, Zapier, Remote, Constructor, Whereby kabi kompaniyalarni keltirib o'tish mumkin<sup>1</sup>.

Masofadan turib ishlashning aralash rejimi(Hybrid Work) mehnat shartnomasi taraflarining kelishuvi bilan belgilanadi. Ushbu ish rejimida xodim ma'lum muddat davomida statsionar ish joyida, qolgan qismida masofadan turib ishlaydi. Masofadan turib ishlashning aralash rejimi statsionar ish joyida va masofadan turib ishlash muddatlari mehnat shartnomasida aniq ko'rsatilishi lozim.

Agar xodim ish vaqtining kamida ellik foizi masofadan turib ishlashga to'g'ri kelsa, xodim masofadan turib ishlovchi bo'lib hisoblanishi haqidagi norma (MK 456-modda) ancha munozarali hisoblanadi. Ushbu masalada huquqshunoslar Olszewski P., Mokhtarian P.L., Edwards P., Taskin L., Collins M., H.Primqulov, N.V.Zakalyujnaya, A.Korkinlar masofadan turib ishlashni ish vaqtining yarmidan ko'pini bajarish deb hisoblaydi. Aksincha, Sh.Ismoilov, M.Gasanovlar masofadan turib ishlash uchun ish vaqtining kamida ellik foizi masofadan turib ishlashga to'g'ri kelishi shart emasligini ta'kidlashadi.

Bundan tashqari masofadan turib ishlashni sinxron va nosinxron ishlashga bo'lish mumkin. Sinxron ishlash xodimning odatdagi ish rejimi va grafigi bo'yicha (masalan, odatda 9.00-17.00 yoki 10.00-18.00 gacha) ishlashi hamda ish beruvchining xabarlariga o'z vaqtida javob berishi lozim bo'lgan vaqt hisoblanadi. Sinxron ishlash uchun quyidagilar xos bo'ladi – bitta vaqt mintaqasida odatda ishni ertalab soat to'qqiz yoki o'nda boshlashadi, chatdagi xabarlar yoki elektron xabarlariga bir soat ichida javob berishi lozim, virtual yig'ilishlarga qo'shilishi yoki shaxsiy uchrashuvlarga o'z jamoasi bilan belgilangan vaqtda ishtirok etishi talab etiladi.

Nosinxron ishlash – xodimlar o'rnatilgan grafikka bog'lanmagan holda o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtda ishlashni bildiradi. Bunda butun jamoaning bir vaqtda ishlashi talab etilmaydi. Shuningdek, nosinxron ishlash turli vaqt mintaqalarida ishlovchi jamoa uchun muhim hisoblanadi. Nosinxron ishlash butun dunyodan xodimlarni yollash va global ofis yaratishga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Ushbu bobda masofadan turib ishlovchilarni yangi texnologiyalardan foydalanuvchi “elektron kasanachilar” deb hisoblovchi hamda kasanachilik va masofadan turib ishlashni bir tushunchalar sifatida qabul qiluvchi olimlarning (Y.N.Poltaves, K.L.Tomashevskiy, M.Brokulxurs) qarashlari tanqid qilinadi. Kasanachilar va masofadan turib ishlovchi xodimlar o'z ishlarini ish beruvchining hududidan tashqarida bajarishlari, uy mehnati sharoiti har ikkisi uchun ham xos bo'lishi, ish beruvchiga tegishli asbob-uskunalar va vositalardan foydalanishi, ish

---

<sup>1</sup> By Rochi Zalani//January 16, 2025//<https://zapier.com/blog/companies-hiring-remote-workers/>

<sup>2</sup> <https://velocityglobal.com/resources/blog/asynchronous-work/#:~:text=Asynchronous%20work%20is%20when%20employees,messages%20in%20a%20timely%20manner.>

vaqtining davomiyligini, ish jadvali va tartibini mustaqil ravishda belgilashi bilan o'xshash hisoblanadi.

Masofadan turib ishlash kasanachilikdan muayyan farqlarga ega hisoblanadi. Xususan, masofadan turib ishlash faqat uyda emas, balki mobil yoki virtual tarzda amalga oshirilishi mumkin (MK 443, 452-moddalari). Shuningdek, masofadan turib ishlashda ish shaxsan bajarilishi lozim (MK 447, 452-moddalari), masofadan turib ishlovchi xodim o'z mehnat vazifalarini bajarish hamda hamkorlikni amalga oshirish uchun axborot-telekommunikatsiya tarmoqlaridan va internetdan foydalanish majburiy shart hisoblanadi (MK 452-modda).

Platformada ishlash va masofadan turib ishlash shakllari an'anaviy ofisdan tashqarida ishlashni taqozo qiladi, ammo ular o'ziga xoslik va tashkiliy jihatdan farqlanadi. Platformadagi bandlik ko'pincha vaqtinchalik muayyan vazifalarni bajarish bilan bog'liq, masofadan turib ishlash esa barqarorroq va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Ish joyidan tashqari ishlashda yana bir nazariy muammo "uyda ishlash"ga mehnatni tashkil etishning mustaqil shakli bo'lishi haqidagi qarashlardir. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (234-modda) hamda "Karantinga oid choralar amal qilish davrida xodimlarni masofadan turib ishlash usulida, moslashuvchan ish grafida yoki uyda ishlashga o'tkazishning vaqtinchalik tartibi to'g'risidagi nizom"ning (18-band) "uyda ishlash"ga oid normalari tahlil qilingan. Huquqshunos olimlar M.Gasanov, Sh.Ismoilovning uy mehnati bu ishni tashkil etishning mustaqil shakli emas, balki kasanachilik va masofadan turib ishlashda mehnat vazifalari bajariladigan ish o'rnini hisoblanishi haqidagi fikrlari qo'llab-quvvatlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari**" deb nomlangan. Ushbu bobda masofadan turib ishlovchi xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishning xususiyatlari, masofadan turib ishlovchi xodimlar ish vaqti va dam olish vaqtini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari, masofadan turib ishlovchi xodimlar mehnatini muhofaza qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Masofadan turib ishlovchi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlari mehnat shartnomasi asosida vujudga keladi. Masofadan turib ishlash haqidagi mehnat shartnomasi o'zining mazmuni, uni tuzish, o'zgartirish va bekor qilishning alohida tartibi bilan bog'liq holda klassik yoki standart shakldagi mehnat shartnomasidan farqlanadi.

Masofadan turib ishlash mehnat shartnomasining mazmuni odatdagi mehnat shartnomasining mazmunidan farq qiladi. Xususan, masofadan turib ishlovchi xodim bilan tuziladigan mehnat shartnomasiga ishning masofadan turib ishlash tusiga ega ekanligi haqidagi shart kiritilishi lozim (Sh.A.Ismoilov, I.A.Kossov). Mazkur shart orqali masofadan turib ishlovchi xodim maqomining o'ziga xosligi belgilanadi va unga nisbatan maxsus normalarni qo'llashning qonuniyligi ta'minlanadi.

Masofadan turib ishlash mehnat shartnomasi uchun ish joyi haqidagi shart ish beruvchi masofadan turib ishlash amalga oshiriladigan joyni haqiqatda nazorat qila

olmasligi, shuningdek o'zaro aloqalar axborot telekommunikatsiya yoki internet tarmog'ida bo'lishi sababli o'zining zaruriy shart sifatidagi ahamiyatini yo'qotishi haqidagi fikrlari (Y.V.Vasileva, S.V.Shuraleva) qo'llab-quvvatlamaydi. Aksincha, masofadan turib ishlash amalga oshiriladigan uy, mobil yoki virtual joylarni "ish o'rni" sifatida baholash lozimligini hamda bu joylar ish beruvchi va xodim tomonidan "shartlashib olingan" yoxud "shartlashib olinmagan" ish joylari bo'ladi, deb hisoblaydi.

Masofadan turib ishlash rejimiga o'tish mehnat shartnomasining o'zgarishi hisoblanadi. Umumiy qoidaga ko'ra masofadan turib ishlash rejimiga o'tish taraflarning kelishuvi bilan amalga oshadi. Shuningdek, ish beruvchining tashabbusi bilan ham obyektiv asoslar vujudga kelganda bir taraflama xodim masofadan turib ishlashga o'tkazilishi mumkin. Biroq xodimning talabi bilan masofadan turib ishlashga o'tkazish mumkinligi haqida qoidalar belgilanmagan. Faqat ayrim xodimlar (tibbiy xulosaga muvofiq xodim sog'lig'ining holatiga ko'ra, tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayol vaqtincha yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'sirini istisno etadigan ishga o'tkazishga muhtoj bo'lsa) ish beruvchi tashabbusi bilan masofadan turib ishlashga o'tkazilayotganda boshqalarga qaraganda imtiyozga ega bo'lishi mumkin.

Masofadan turib ishlovchi xodim bilan mehnat shartnomasini tuzish tartib-taomillari standart mehnat shartnomasini tuzishdan bir qator xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi. Masofadan turib ishlash mehnat shartnomasini tuzish ham an'anaviy usulda, ham elektron hujjatlar almashish orqali amalga oshiriladi. Qonunchilik mehnat shartnomasini elektron hujjatlar tuzish orqali tuzish mumkinligini belgilagan bo'lsada, ish beruvchini shartnomaning qog'oz shaklini tayyorlash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Masofadan turib ishlovchi xodim bilan mehnat shartnomasini tuzishda ayrim taqiqlarga amal qilishga doir (Ukraina, Moldova) normalarni tahlil qilingan. Xususan, mazkur toifadagi xodimlar bilan zararli va xavfli ishlar bo'yicha mehnat shartnomasini tuzmaslik yuzasidan mehnat qonunchiligiga o'zgartirish kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Masofadan turib ishlovchi xodimlar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda ham muammolar mavjud. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 161-moddasining ikkinchi qismi 5-bandini masofadan turib ishlovchi xodimlarga qo'llashda mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzishlarning ro'yxatini qaysi hujjatda belgilash bo'yicha aniq ko'rsatma yo'q. Mazkur kamchilikni bartaraf etish maqsadida masofadan turib ishlovchi xodimlar uchun mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzilishlari ro'yxatini xodim va ish beruvchi o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasida belgilash lozimligi haqida taklif ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarini belgilash bilan bog'liq muammo ham bor. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 456-moddasining oltinchi qismiga asosan masofadan turib ishlovchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida uni bekor qilishning qo'shimcha asoslari ham nazarda tutilishi mumkinligi belgilangan. Biroq aynan qanday asoslar masofadan turib ishlash haqidagi mehnat shartnomasini bekor qilishning qo'shimcha asoslari

bo'lishi haqida aniq qoidalar mavjud emasligi ko'rsatib o'tiladi. Mehnat shartnomasini bekor qilishning qo'shimcha asoslari masofadan turib ishlashning zaruriy belgilaridan kelib chiqib taklif etiladi.

Ayrim olimlarning (N.L.Lyutov, S.V.Shuraleva) fikricha, masofadan turib ishlovchi xodimlarni mehnat shartnomasida nazarda tutilgan qo'shimcha asoslar bilan ishdan bo'shatish munozarali bo'lib, ushbu asoslarni kiritish uchun hech qanday obyektiv sabablar mavjud emas. Ularning fikricha, bunday asoslar masofadan turib ishlovchi xodimlarni boshqa ayrim toifadagi xodimlarga qaraganda kamsitadi.

Masofadan turib ishlovchi xodimlar uchun ish vaqti va dam olish vaqtini belgilash bo'yicha o'ziga xos xususiyatlar amal qiladi. Xususan, mehnat shartnomasida masofadan turib ishlovchi xodim uchun ish vaqti rejimi o'rnatilmagan bo'lsa, ushbu xodim ishlab chiqarish vazifasining hajmidan va boshqa sharoitlardan kelib chiqib ish vaqtidan foydalanish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi.

Masofadan turib ishlovchi xodimning ish vaqti rejimi o'zi tomonidan mustaqil ravishda belgilangan taqdirda unga ish vaqtidan tashqari ishlash, dam olish kunlaridagi va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ish, tungi vaqtdagi ishlash haqidagi qoidalar tatbiq etilmaydi.

Masofadan turib ishlovchi xodimning ish vaqtiga hamkorlik qilish vaqtida ish beruvchi bilan aloqada bo'lishi lozim bo'lgan vaqt, shuningdek, xodim tomonidan mustaqil ravishda belgilangan vaqt kiradi. Masofadan turib ishlovchi xodim ish beruvchi bilan aloqada bo'lishi kerak bo'lgan vaqtga ish beruvchining telefon qo'ng'iroqlariga, elektron xatlariga va boshqa so'rovlariga javob berishi lozim bo'lgan vaqt kiradi.

Masofadan turib ishlovchi xodimlar boshqa toifadagi xodimlarda bo'lmagan alohida individual imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu sababli masofadan turib ishlovchi xodimlar ishlashi mumkin bo'lgan ish vaqti turlari va ish vaqti rejimini aniq belgilash, ish vaqtini hisobga olish (kunlik, haftalik yoki jamlab) va monitoring qilish tizimini takomillashtirishni taqozo qiladi.

AQSh, Yaponiya, Avstraliya kabi davlatlar masofadan turib ishlash haqidagi qonunchilikda ish beruvchining masofadan turib ishlovchi xodimlar ish vaqtini nazorat qilish uchun onlayn tizimlar (**time-tracking software, time-tracking tools**) dan foydalanishi shartligi yoki mumkinligi haqidagi normalar belgilangan.

Masofadan turib ishlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri xodim mehnat to'g'risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda yoki mehnat shartnomasida boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa, dam olish vaqtini ham o'zi mustaqil ravishda belgilaydi.

Masofadan turib ishlashda ish va shaxsiy hayot muvozanatini (Work-Life Balance) ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Argentina, Italiya, Janubiy Koreya, Hindiston kabi davlatlarda xodimning ishdan uzilish huquqi (Right to disconnect) alohida mustahkamlangan.

Ish beruvchining xavfsiz va lozim darajadagi mehnat sharoitlarini ta'minlash hamda xodimning mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish majburiyati masofadan turib ishlash uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Masofadan turib ishlash o'ziga xosligi sababli ish beruvchiga mehnat sharoitining xavfsizligini nazorat qilish uchun cheklangan imkoniyatlarni nazarda tutadi. Shuning uchun ish beruvchining majburiyatlarini cheklash va ularni qisman xodimlarning o'zlariga o'tkazish lozim. Bunda xodim va ish beruvchi birgalikda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlarni bo'lishi kerak.

